
HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Bugun tumanimizdagi 1-umumta'lim maktabida tuman hokimi I.Novikov va hududdagi yoshlar ishtirokida "Hokim va yoshlar" urashuvi bo'lib o'tdi.

Samimiy va oshkora ruhda o'tgan tadbirda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan tuman hokimiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qildi.



Uchrashuvda 17 nafar yoshlar tadbirkorlik, kredit hamda bandlik masalalari bo'yicha murojaat qilishdi. Joyida hal qilish imkoni bo'lgan og'zaki murojaatlar shu joyning o'zida qanoatlantirildi. Atroflicha o'rganish taqozo etiladigan masalalarni hal etish yuzasidan vakolatli idoralarga topshiriqlar berildi.



Shuningdek, qo'l jangi bo'yicha Toshkent shahrida o'tkazilgan musoboqada faxrli 2-o'rinni egallagan maktab o'quvchisi Sherzodbek Odilovga tuman hokimligining esdalik sovg'alari topshirildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-12-25 16:39:25